

DUNYONING TIL YORDAMIDA BILISHDA ONGNING ROLI*Qo‘ldasheva Shaxnoza Akramovna**O‘zDJTU dotsenti v.b.**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotasiya. Mazkur maqolada dunyoning til yordamida bilishda ongning roli tilshunoslikda hozirgi kunda eng dolzarb masalalaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Mualliflarning maqolada ilgari surgan g‘oyasiga ko‘ra ong dunyoni bilish, nomlash, kategorizatsiyalash va konseptualizasiya qilish jarayonida yetakchi rol o‘ynaydi. Til va tafakkurning bu tomonlarini tadqiq etishni o‘ziga maqsad qilgan ko‘p tilshunoslar masalaning eng muhim tomoni deb insoniyat tafakkuri rivojlanish tarixi, ibtidoiy odamlar tafakkurini o‘rganish kabi narsalarni hisoblaydilar va ularga keragidan ortiqcha e‘tibor beradilar.

Kalit so‘zlar: ong, nominatsiya, borliq, narsa, hodisa, kategorizatsiya, konseptualizasiya, kognitsiya, tajriba, tafakkur, til birliklari, nutq mahsuloti, strukturalash.

XX asr boshida, aniqrog‘i 1904 yilda mashhur rus tilshunosi I.A.Boduen de Kurtene insondagi bilish jarayonlarini uchta turini ko‘rsatib o‘tdi. Ular quyidagilardir: 1) intuitiv-ijodiy bilish; 2) analitik-ilmiy bilish; 3) lisoniy bilish [1, 112]

Tilshunoslar bu klassifikatsiyaning mohiyatini tushunib olishi uchun ko‘p bosh qotirdilar, chunki bu erda keltirilgan dastlabki ikki usul hammaga tushunarli bo‘lgan holda, uchinchi usul – lisoniy bilish – bu bilishning qanday turi ekanligi haqida I.A.Boduen de Kurtening fikri qanday bo‘lganligi qorong‘u qolavergan edi. Bu o‘rinda I.A.Boduen de Kurtene o‘z fikrini rivojlantirib quyidagilarni yozgan edi:

“Biz tilni bilishning alohida usuli deb hisoblashga haqlimiz, ya’ni biz bilishning uchinchi turi lisoniy bilishning borligini tan olishimiz kerak. Bilishning bu turi boshqa turlaridan, ya’ni – intuitiv bilish, sezgi – tuyg‘ular yordamida bilish yoki bevosita bilish yoki boshqa turi ilmiy, nazariy bilishdan katta farq qilishi tayindir. Har bir tilda biz turlicha dunyoqarashning qoldirgan qatlami yoki qoldiqlarini ko‘rishimiz mumkin-ki, ular bir-biri orqasidan xronologik tartibda ergashib keladi, yoki bo‘lmasa tabiat voqealari yoki ijtimoiy hayotning turli tomonlarini aks ettiradi. Tafakkur bilan chambarchas aloqada bo‘lgan holda til unga ta’sir qilishi mumkin. Bu ta’sir oqibatida esa bu bilim kuchayishi, tezlashishi, sekinlashishi yoki to‘xtatib qo‘yilishi mumkin. [2, 52]

Misol tariqasida I.A.Boduen de Kurtene turli til kelishik sistemalarida dunyoni bo‘lish tahlil qilinadi. Tilda “egotsentrizm qonuni”ni qo‘llash manna shu holatni ozohlashga xizmat qildiriladi.

Zamonaviy nuqtai nazardan so‘z yuritsak I.A.Boduen de Kurtene “lisoniy bilish” deb atagan bilim hozirgi zamon tilshunosligida “dunyoning o‘ziga hosligini til vositalari bilan ifodalash” yoki “dunyoning lingvistik yo‘li bilan berilgan surati” deb ataladigan tushunchaga mos keladi.



Bu tushunchaga buyuk nemis olimi V. Fon Gumboldt tomonidan asos solingan bo‘lsa-da, va E.Sepir, B. Uorf, L.Vaysgerber va 30 yillarda V.I.Abaevlar tomonidan chuqur o‘rganilgan bo‘lsa-da hali tayin bir yechimga kelingani yo‘q va XXI asrning boshiga kelib u yo‘nalish tilshunoslikning markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylanib qoldi.

Mazkur masalaning hozirgi zamon tilshunosligida muhokamasi haqida so‘z yuritsak shu narsa ma‘lum bo‘ladi-ki, til va tafakkur kategoriyalari o‘rtasidagi munosabatning umumiy printsiplari barcha tillarda qandaydir bir struktural karkasning (asos) har bir asosiy sintaktik birlikda – so‘z birikmalari va gaplarda borligini ehtimgol qilishga va faqat bu karkasning “detallari” ikki sostavli tabiaktda ishlatilishi jihatdan konkret tillarning spetsifikasini ifodalashini tushunishga imkon beradi. Tushuncha tillar tomonidan vositalar yordamida ifoda etilishi bilan ham farqlanadi. Yapon “daraxti” yoki bushmenlar tushungan “daraxt”dan keskin farq qiladi. Shuning uchun yapon tarjimoni o‘zbek matnini yapon tiliga tarjima qilganda o‘zbek voqeligini berish uchun yapon verbal va noverbal hayot tajribasiga suyanadi va Yaponiyada denotatga ega bo‘lmagan daraxt turlarini tarjimasida juda qiyin bo‘ladi. Chunki, yapon va xitoyliklar “tree” so‘zini eshitganda o‘zga davlatlarda o‘sadigan daraxtlarni emas, balki avval o‘zi qanday daraxtlarni ko‘rgan bo‘lsalar xudi o‘sha daraxtlarni ko‘z oldo‘iga keltiradi.

Ayni bir predmet turli tilda so‘zlovchi xalqlar tomonidan turlicha nomlanishining asosiy sababi turli xalqlar tafakkuri turiga qarab predmetning u yoki bu tomoniga e‘tiborni qaratilishidir. Bir xalqda predmetning shakli diqqat markazida bo‘lsa, boshqasida uning ishlatilishi, funktsiyasi, yana boshqa xossalari bo‘lishi mumkin. Buning oqibatida bu so‘zni eshitganda bo‘ladigan reaksiya turli xalqlarda turlicha bo‘ladi. Masalan: “quyosh” so‘zini eshitganda bo‘ladigan reaksiya haqida gapirsak, u shimoliy mintaqa xalqlarida juda ijobiy bo‘lib, ular tomonidan turli najotbaxsh, mo‘l xosil olib keluvchi, hatga iliqlik baxsh etuvchi va xokazo kabi butunlay ijobiy elementlar bilan ishlatilishi mumkin. Ammo issiq regionlarda, ayniqsa ekvatorning ikki tomonidan joylashgan areallarda yashovchi xalqlar tomonidan “quyoshga” nisbatan ishlatilgan elementlar esa ko‘p hollarda salbiy, bu ellarda quyosh “ayovsiz qizdiradigan, jaziramalar sababchisi, suvsizlik keltiruvchi, qurg‘oqchilik olib keluvchi” degan va shu kabi elementlar ishlatiluvchi bir ob‘ekt sifatida qaraladi. [8, 14-26]

Albatta bu ikki holda ir narsa “osmon yoritgichi, kichik bir yulduz” nazarda tutilgan bo‘lsa-da, bu yoki shunga o‘xshash leksikografik ta‘rifi juda sun‘iy, umumiyashtirilgan jumla bo‘lib faqat tilshunoslar tomonidagina foydalanishi mumkin. Oddiy odamlar uchun esa u shunchaki “quyosh”, isitadi, kuydiradi, qovjiratadi, iliqlik baxsh etadi, energiya manbai va h.k.

Bularning barchasi so‘zlovchi insonning tafakkurida sodir bo‘ladigan jarayonlarga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Tilshunoslikda taffakkurning mantiqiy va semantik shakllari haqida ko‘p yoziladi. [Qarang: 3, 17-19; 4, 8-32; 5, 237-266; 6, 112; 7, 31-34; 8, 14-26]

Ularda olib boriladigan tadqiqotdarning asosiy yo‘nalishi va qilinadigan ilmiy xulosalar quyidagilardan iborat.

Dunyoning turli tillarda soʻzlovchi xalqlar miyasi tomonidan bajariladigan bir xil nutqiy operatsiya turli xil vositalari bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu erda u yoki bu xil til shaklining tanlanishi u yoki bu tilda soʻzlovchi xalq ongining oqimiga aniqrogʻi uning yoʻnalishiga koʻp jihatdan bogʻliq. Ayrim xalq tomonidan alohida eʼtibor bilan qaralgan belgilar boshqa bir tillarda soʻzlovchi xalqlar tomonidan butunlay sezilmay qolishi ham mumkin.

Til unsurining maʼnosi shu unsurning bir xil shaklda saqlab qolinganligiga qaramay bir necha marta oʻzgarishi, ayrim xolatlarda dastlabki maʼnosidan butunlay aloqani uzishi ham mumkin.

Bu yerda maʼnoni ifoda etishda soʻz tanlash, ularni turli maʼnoda qoʻllash va hakozolarning ahamiyati cheksiz ortib ketadi. Buning oqibatida oddiy konkret soʻzlar butunlay abstrakt maʼnolarni ifodalashga ishlatiladi. Bunday xolatlarda soʻzlarning koʻp maʼnoligi, soʻz maʼnosining ifoda koʻlamining kengayishi, soʻzlar kontekstual maʼnosining ahamiyatining keskin ortib ketishi kabi hodisalar kuzatiladi.

Xulosa tarzida quyidagilarni aytish mumkinki, til va tafakkurning bu tomonlarini tadqiq etishni oʻziga maqsad qilgan koʻp tilshunoslar masalaning eng muhim tomoni deb insoniyat tafakkuri rivojlanish tarixi, ibtidoiy odamlar tafakkurini oʻrganish kabi narsalarni hisoblaydilar va ularga keragidan ortiqcha eʼtibor beradilar. [4, 265-278]

Bu masalani tadqiq etishda turli tilda soʻzlovchi xalqlarning tafakkurini qiyosiy tarzda oʻrganish, ong va tushuncha, til va tafakkurning umumiy va xususiy qonuniyatlarini tillarning grammatik va leksik strukturasi aks etishi hamda ongning selektiv faoliyati masalasiga koʻproq eʼtibor berish kerak deb oʻylaymiz. Bu esa oʻz navbatida tillarning “milliy oʻziga xosligi” hodisasining tabiatini yoritib berishda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega boʻlishini koʻrsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Бодуэн де Куртенэ И.А. Языкознание. / Энциклопедический словарь Брокгауза и Европа. Т.81, СПб., 1904.
2. Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. Т.2, М., 1903.
3. Потебня А.А. Мысль и язык. - Одесса, 1982. - 165 с.
4. Серебренников Б.А. Роль человеческого фактора в языке. Язык и мышление. – М.: Наука, 1988. – 242 с.
5. Хомский Н. Три модели описания языка. // Кибернетический сборник, вып. 2. - 1961. - С. 237-266.
6. Чесноков П.В. Неогумбольдтианство. // Философские основы зарубежных направлений в языкознании. М., 1977. – 238 с.
7. Maxmudov N. Til. T.: Fanlar Akademiyasi Nashriyoti, 2004. - 48 b.
8. Qoʻldasheva Sh.A. Ingliz va oʻzbek tillarining shakllanishi va rivojlanishida divergent va konvergent belgilarining evolyutsiyasi. F.f.f.d. Diss. Toshkent, 2023. 145 bet. – 14-26 bb.